

Odinaxon Ikromova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI VA UNI AMALIYOTDA QO'LLASH ZARURIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida uyg'unlashtirish hamda bu orqali jahon bozoriga aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan kirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytirish masalalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda MHXSni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lganligi haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xorijiy investitsiyalar, milliy standartlar, transformatsiyalash.

INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING AND THE NEED FOR ITS APPLICATION IN PRACTICE

Abstract: In this article, the issues of harmonizing the accounting of the Republic of Uzbekistan based on the international standards of financial reporting and thus entering the world market with accurate and reliable information, further increasing the flow of foreign investments into the economy of our country, as well as the issues of the President of the Republic of Uzbekistan "International Financial Reporting It is mentioned that the decision PQ-4611 of February 24, 2020 "on additional measures for the transition to standards" was an important basis for the development of MHXS in our country.

Key words: international standards of financial reporting, foreign investments, national standards, transformation.

Kirish

Yangi O'zbekistonda mamlakatimiz jahon bozoriga integratsiyalashuvi yanada rivojlanmoqda. Xususan, buxgalteriya sohasida ham bu borada qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridan foydalanish esa ana shu ishlarning eng yaqqol namoyishi desak mubolaga'a bo'lmaydi. Davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) deganda – davlat tasarrufidagi

tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda hamda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha xalqaro darajada umumqabul qilingan qoidalardir. Bubo'yicha bajariladigan ishlar esa albatta, xalqaro maydonga barcha uchun tushunarli, aniq va shaffof tarzda tayyorlangan mahsulotlarni taqdim etishda asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror (PQ-4611, 2020) qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxasislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va boshqa masalalar bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil 12-oktabrda 92-sonli MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ularni ekspertizadan o'tkazishni tashkil qilish to'g'risida buyrug'iga asosan 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi.

MHXS hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun Moliya vazirligi tomonidan (2022) ekspertiza komissiyasi tuzilib, ekspertiza komissiyasining xulosasida O'zbekiston Respublikasi hududida MHXS hujjatlarini to'liq qo'llash mumkinligini tasdiqlagan yakuniy fikri aks ettirilgan.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish hamda bu orqali xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga (2022) Murojaatnomasida ham yana bir bor ta'kidlab o'tdilar: "Iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash ustuvor vazifa bo'ladi. Kelgusi yilda 30 milliard dollarga yaqin kapital jalb qilinadi, shundan 25 milliard dollari xususiy investitsiyalardir."

Albatta, davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini mamlakatimizda qo'llash iqtisodiyotimiz yanada barqaror rivojlanishi uchun afzalliklar yaratib beradi. Ya'ni, bunday hisobotlardan foydalanish orqali biz ma'lumotlar shaffofligi, aniqligi va to'liqligini oshirishga erishishimiz hamda moliyaviy hisobotlarimizni chet mamlakat hisobotlari bilan taqqolashimiz mamlakatimizda bo'ladi. Shuningdek, xalqaro globallashtirish jarayonida mamlakatlar moliyaviy holatini tushungan holda mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida (PF-60, 2022) ham mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari belgilab qo'yilgan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, axborotdan foydalanuvchilarga moliyaviy holat to‘g‘risida shaffof va ishonchli tarzda ma‘lumotlarni yetkazib berish iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

MHXS - bu xalqaro standartlar to‘plami va ular uchun ajralmas ilovalar, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning kontseptual tamoyillari va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida buxgalteriya hisobi va auditning mafkuraviy asosini tashkil etadi. (Raximova, 2020)

Bugungi kunda barcha mamlakatlar jahon maydoniga qadam qo‘yishga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xarakat qilmoqda. Shu munosabat bilan 150 dan ortiq davlatlar hozirda MHXS dan o‘z moliyaviy holati haqida aniqroq ma‘lumot taqdim etish uchun foydalanishmoqda.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo‘ziyevlar (2020) MHXS ga o‘tishning istiqbollari, A.Z.Avloqulov (2020) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni yuritish to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan.

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.N.Tashnazarov (2019) doktorlik disertatsiyasida (DSc) hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, va shu asosida moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg‘or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish zarurligini to‘g‘risida chuqur o‘rganish va tahlillar olib borgan.

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori Jumanov.S.A.(2019) o‘z doktorlik disertatsiyasida (PhD) bugungi kunda moliyaviy hisobotni takomillashtirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish va uni joriy etish barcha mamlakatlar uchun dolzarbligi, jahondagi ko‘plab mamlakatlar moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi natijasida MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzishga o‘tayotganlihaqida ta‘kidlab o‘tadi.

Jessika X.Yang, Nada Kakabadze va Dmitro Lazovskiylar (2013) moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy maqsadi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir degan xulosaga kelishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanishning ahamiyati va zarurligi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda rasm va jadvallardan foydalanildi. Shuningdek, bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar haqida taklif va xulosalar keltirib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) metodologiyasini o‘rganish moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslarida (Framework for the Preparation of Financial Statements) belgilangan prinsiplardan boshlanishi kerak. Ushbu hujjat standart hisoblanmaydi varaqamga ega emas. Ammo, MHXSni tushunish uchun aniq asoslarni o‘z ichiga oladi. Unda keltirilgan prinsiplar konsepsiyalarga asoslanadi. (Xajimuratov, 2020)

Ma’lumki, moliyaviy hisobotning maqsadi amali jihatdan tashkilot uchun samarali bo‘lgan hamda keng ko‘lamli foydalanuvchilar uchun foydali bo‘lgan moliyaviy holat, tashkilot faoliyatining natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish hisoblanadi. Asosan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar ichida investorlar muhim rol o‘ynaydi. Ularning asosiy maqsadi yanada ko‘proq dividend va kapitallarni ko‘paytirish orqali daromad olish hisoblanadi. Shu sababli ular nafaqat mavjud vaziyat haqida ma’lumotni, balki tashkilotning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari va risklari haqida ham qiziqishadi.

Hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarda MHXS qo‘llanilmoqda. Ushbu sohani yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro MHXS fondi tomonidan 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiya ishlab chiqildi. Unga ko‘ra MHXS orqali davlat moliyasini boshqarishni kuchaytirish va global miqyosda hisob-kitoblarni qabul qilishni oshirishga quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali erishishimiz mumkin: (1-rasm)



1-rasm. MHXS ni takomillashtirish bo‘yicha 2019-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiya. (IPSASB at a glance, 2019)

Yuqorida keltirilgan rasmda MHXSni takomillashtirish shuningdek bunda jamoatchilik diqqatini jalb qilish maqsadida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar keltirib o'tilgan.

MHXS lar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar mamlakatda investitsion muhitni yaxshilaydi. Mamlakat iqtisodiyotiga yirik kompaniyalar tomonidan investitsiyalarning kirib kelishiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida MHXS dan foydalanishning zarurligini quyidagi omillar bilan belgilashimiz mumkun:

- turli mamlakatlarda investorlar va aksionerlar potensial kompaniyalarning bir xil tamoyillar, ya'ni taqqoslanuvchanlik asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotni yaxshiroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

- turli mamlakatlarda turli fond birjalariga ularning har biriga o'sha mamlakatning standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotdan ko'ra hammasi uchun yagona tan olinadigan bitta moliyaviy hisobotni tuzish maqsadga muvofiqdir. Natijada hisobotni tuzish harajatlari ham qisqaradi va kapitalni jalb qilish imkoniyatlari ham kengayadi.

MHXS larning turli xil milliy hisob tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda qo'llanilishi ko'zda tutilganligi sababli ular tarkibiy tuzilishi bo'yicha ham barcha uchun bir xil bo'lishi kerak. Xozirgi kunda xalqaro standartlar tarkibi bo'yicha uch qismdan iborat. Birinchi qism – kirish, ikkinchi qism – hisob obyektining tavsifi, uchinchi qism – buxgalteriya hisobi standarti (xulosasi) deb ataladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatimizda qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlar orqali davlat sektori faoliyatining natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi hamda axborotlarni shaffofligini oshiradi, Budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni sifatli va yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, axborotlarning ishonchliligi va to'liqligining oshishi hisobiga davlat aktivlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini takomillashtirish kontseptsiyasiga muvofiq budget hisobining standartlari loyihalari ishlab chiqilmoqda hamda tegishli soha mutaxassislari ishtirokida muxokamalardan o'tkazilmoqda. Xozirgi kunda budget hisobi standartlarini qabul qilinishi:

- buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha milliy qonunchilik talablarini e'tiborga olish;

- ortiqcha xarajatlarsiz buxgalteriya va moliya xodimlarini tayyorlash, o'qitishni tashkil etish;

- amaldagi avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturini (UzASBO) ba'zi kichik o'zgartish va qo'shimchalar bilan foydalanish;

- yangio'zgarishlar jarayonini tashkil etishni osonlashtirish imkonini beradi. (Xudayberdiyeva, 2022)

Shuningdek, butun dunyoda MHXSdan foydalanish investitsiyalar oqimiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rishimiz mumkun:

1-jadval

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (million dollarda) (OECD, 2022)

	2017	2018	2019	2020	2021
Avstria	14926	5512	2913	-14963	5855
Kanada	22764	37654	50142	23174	59694
Germaniya	48538	72053	52664	64442	31263
Fransiya	24780	41807	28362	4862	14159
Koreya	12699	13299	12548	8765	16820
Turkiya	10959	12535	9701	7773	12177
Yangi Zenlandiya	2721	2297	4279	3812	3482
Vengriya	3514	6460	4329	6801	5459
Finlandiya	2858	-2170	13455	-1422	8927

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkunki, pandemiya sharoitida garchi barcha mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalar oqimi pasaygan bo'lsada, MHXS dan foydalanish natijasida barcha mamlakatlarda investitsiyalar harakatini yanada rivojlantirishimiz mumkun.

Albatta, hozirgi kunda mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarni tuzishda xalqaro va milliy standartlar qoidalarida bir qancha farqlar mavjud. Bu esa o'z navbatida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishda bir necha metodologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu muammolarni bartaraf etishda fikrimizcha, moliyaviy hisobotlarni tuzish jarayonida uzluksizlik, hisoblash, taqqoslanuvchanlik va o'z vaqtidalik kabi buxgalteriya hisobi prinsiplariga e'tibor qaratish va ularni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash zarur.

MHXS talablariga mos keladigan moliyaviy hisobot taqdim etishda nafaqat mos keluvchi standartga murojaat qilish, balki MHXS 1 da ularga havola bo'lgan boshqa MHXS talablariga ham alohida e'tibor qaratish hamda jamiyatning moliyaviy hisobotlarini shakllantirish va taqdim etishga nisbatan ularni qo'llash choralarini ham hisobga olish zarur. (Muzrapova, 2022)

Xulosa

MHXS dan foydalanish har bir mamlakat uchun birdek qabul qilinishi lozim bo'lgan hujjatlardan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot rivojlangan davrdan imkon qadar iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun unumli foydalanishimiz zarur. Ya'ni, har bir mamlakat o'z milliy standartlaridan foydalanishi va buning natijasida xorijiy mamlakat investorlari uchun hisobotlarni tarjima qilishda yo'qotiladigan vaqt va sar-xarajatlar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun muhim bir to'siq bo'lib hisoblanishi mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda hamda mamlakatimizda MHXS dan foydalanishni yanada jadallashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin:

birinchi navbatda xalqaro MHXS va milliy standartlarimiz orasidagi tafovutlarni yo'qotishimiz zarur, ya'ni hisobot shakllarini tuzish tartibini takomillashtirish lozim. Har bitta investor milliy standartlar asosida hamda MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlardan foydalanganda farq topmasligi kerak;

bu sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada jadallashtirish lozim, chunki aynan ushbu kadrlar iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini yaratadi;

MHXS ni mamlakatimizga transformatsiya qilar ekanmiz, har bir tashkilot foydalana olishi uchun yagona integratsiyaga ega bo'lgan dastur ishlab chiqish zarur. Chunki, ushbu dastur orqali biz hisobotlarda inson omilini kamaytirishga va vaqtdan samarali foydalanishga erishishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda barcha uchun tushunarli bo'lgan hisobot standartlaridan foydalanish mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu orqali biz xalqaro miqyosda o'z reytingimizni yanada yuqoriga ko'tarishimiz, hisobotdan foydalanuvchilar ko'lamini kengaytirishimiz hamda ushbu hisobotlar shaffofligini oshirishga erishishimiz, hamda xalqaro globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori.

2. "MHXS hujjatlari O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olindi" nomli maqola. Moliya press, 13.12.2022.

3. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 20.12.2022.

4. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60 28.01.2022.

5. Raximova G.M. MHXS globallasuvi: standartlashtirishning jahon tajribasini tahlil qilish (birinchi turkum). "Moliya va bank ishi" elektron jurnali. № 5, 2020-yil, 39-bet.

6. A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol "Xalqaro ilmiy moliya va hisob" jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.

7. Avloqulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.:2020. 243-bet.

8. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

9. Jumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi avtoreferati. T.:2019. 56-bet.

10. Jessika Hong Yang, Nada Kakabadze, Dmitro Lozovsky. International financial reporting standards (IFRS) as a change agent in Ukraine. Journal of Governance and Regulation. Volume 2, Issue 3, 2013, Continued – 1.

11. N.Sh.Xajimuratov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzishning metodologik asoslari. Servis-ilmiy amaliy jurnali. № 3, 2020-yil 179-bet.

12. IPSASB at a glance. 2019.

13. Xudayberdiyeva, Nilufar Mengqobilovna. "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 2, 2022, pp. 913-925.

14. Muzrapova Shahnoza Saydullayevna. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi" Ta'lim fidoyilari, vol. 16, no. 3, 2022, pp. 225-234.

15. <https://www.oecd-ilibrary.org/finance-and-investment/oecd-international-direct-investment-statistics>.